



INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA TIFLOPEDAGOGIKANING O'RNI

**Umirzoqova Sarvinoz Ulug'bek qizi**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Tiflopedagogika yonalishi talabasi*

[umirzoqovasarvinoz051@gmail.com](mailto:umirzoqovasarvinoz051@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim tizimida tiflopedagogikaning o'rni, tiflopedagogikaning inklyuziv jarayonga qo'shgan hissasi va ko'zi ojiz o'quvchilarni umumta'lim muhitida samarali ta'lim olishiga ko'maklashuvchi pedagogik tamoyillar tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning mohiyati, nazariy asoslari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim jarayonidagi teng imkoniyatlari asosiy e'tibor markazida. Maqola, shuningdek, O'zbekiston va jahon tajribalaridan misollar keltirib, ta'lim tizimini yanada inklyuziv qilish yo'llarini ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** *Inklyuziv ta'lim, tiflopedagogika, ko'zi ojiz o'quvchilar, teng imkoniyatlar, adaptiv dastur, o'quv muhit.*

**Аннотация;** *В данной статье анализируется роль тифлопедагогике в системе инклюзивного образования, её вклад в инклюзивный процесс, а также педагогические принципы, способствующие эффективному обучению незрячих учащихся в условиях общеобразовательной среды. В центре внимания находятся сущность и теоретические основы инклюзивного образования, а также современные педагогические подходы, обеспечивающие равные образовательные возможности для детей с нарушениями зрения. Кроме того, в статье приводятся примеры из опыта Узбекистана и мировой практики, а также рассматриваются пути дальнейшего развития инклюзивной системы образования.*

**Ключевые слова:** *инклюзивное образование, тифлопедагогика, незрячие учащиеся, равные возможности, адаптивная программа, образовательная среда.*

## KIRISH

Inklyuziv ta'lim bugungi ta'lim tizimining fundamental tamoyillaridan biri sifatida qaralmoqda. Uning asosiy maqsadi barcha o'quvchilarga, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslar — xususan, ko'zi ojiz o'quvchilarga ham — teng ta'lim olish imkoniyatini yaratishdan iborat. Inklyuziv ta'lim tizimi sog'lom va nogironligi bo'lgan o'quvchilarning birgalikda ta'lim olishini ta'minlab, ularni jamiyatga integratsiya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Tiflopedagogika esa ko'zi ojiz o'quvchilarga maxsus yondashuvni taqdim etuvchi maxsus pedagogika sohasi bo'lib, inklyuziv muhitda bunday o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Asosiy qism

1. Inklyuziv ta'lim tushunchasi va maqsadi



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Inklyuziv ta'lim — bu barcha o'quvchilarga, ularning imkoniyatlari va ehtiyojidan qat'i nazar, teng ta'lim olish sharoitini yaratish tamoyili asosida tashkil etilgan ta'lim tizimidir. Inklyuzivlik nafaqat umumiy muhitni ta'minlash, balki har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojiga moslashtirilgan ta'lim jarayonini yaratishni ham o'z ichiga oladi.

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi:

Imkoniyati cheklangan bolalarga sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olish imkoniyatini yaratish – ya'ni barcha bolalar jismoniy yoki rivojlanishidagi farqlardan qat'i nazar bir xil maktabda, bir xil sharoitda ta'lim olishi uchun sharoit yaratish.

Inklyuziv ta'lim tizimida tiflopedagogikaning o'rni metodologik jihatdan ko'rib chiqilganda, u nafaqat ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'qitish usullarini ishlab chiqish, balki ularni umumta'lim muhitiga samarali integratsiya qilish jarayonini ham qamrab oladi. Tiflopedagogika inklyuziv ta'limda pedagogik yondashuv, metod va vositalarni ishlab chiqish orqali ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu jarayon metodologik jihatdan o'quv jarayonini moslashtirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Avvalo, ta'lim jarayonini moslashtirish metodologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'lim sharoitida ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar umumta'lim sinfida boshqa o'quvchilar bilan birgalikda o'qiydi, biroq ularning o'ziga xos ehtiyojlari hisobga olinadi. Shuning uchun tiflopedagogika o'quv materiallarini maxsus shaklga keltirishni tavsiya etadi. Masalan, oddiy bosma darsliklar ko'zi ojiz o'quvchilar uchun Brayl yozuvida tayyorlanadi yoki audio shaklga o'tkaziladi. Amaliyotda ko'pincha shunday holatlar uchraydiki, tarix yoki geografiya darslarida xaritalar oddiy ko'rinishda berilganda ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi uni tushunishda qiynaladi. Tiflopedagogik yondashuv asosida esa relfli (bo'rtma) xaritalar yoki maketlar qo'llaniladi. O'quvchi qo'li bilan xarita yuzasini paypaslab, tog'lar, daryolar va hududlarning joylashuvini his qilish orqali mazmunni anglaydi. Bu usul nafaqat bilimni o'zlashtirishni osonlashtiradi, balki bolaning sezgi organlari orqali idrok qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, dars jarayonida qo'llaniladigan metodlar ham moslashtiriladi. Masalan, o'qituvchi ko'proq og'zaki tushuntirish, tavsiflash va dialogik metodlardan foydalanadi. Agar biologiya darsida o'simlik tuzilishi o'rganilsa, ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi uchun o'simlikning haqiqiy namunasi yoki relfli modeli taqdim etiladi. O'qituvchi o'simlikning bargi, poyasi va ildizi haqida nafaqat aytib beradi, balki o'quvchiga uni qo'li bilan ushlab ko'rish imkonini ham yaratadi. Bu metod ko'rish imkoniyati cheklangan bolalarda predmetni sezgi orqali anglashni rivojlantiradi.

Inklyuziv ta'limda tiflopedagogikaning yana bir muhim metodologik yo'nalishi pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish bilan bog'liq. Umumta'lim maktabida ishlayotgan o'qituvchi ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi bilan qanday ishlashni, darsni qanday tashkil etishni va qanday didaktik vositalardan foydalanishni bilishi zarur. Masalan, matematika darsida oddiy yozuvli doskadan foydalanish ko'zi ojiz o'quvchi uchun yetarli



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



bo'lasligi mumkin. Shu sababli o'qituvchi maxsus relfli matematik jadvallar yoki Brayl yozuvli hisoblash vositalaridan foydalanishni o'rganishi kerak. Amaliyotda ayrim maktablarda tiflopedagog mutaxassislar umumta'lim o'qituvchilari bilan hamkorlikda ishlaydi. Ular o'qituvchilarga metodik tavsiyalar beradi, dars jarayonini kuzatadi va o'quvchilar bilan ishlashning samarali usullarini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, tiflopedagogika inklyuziv ta'limda ijtimoiy integratsiya jarayonini ham qo'llab-quvvatlaydi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar ko'pincha jamoadagi muloqot jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli dars va sinfdan tashqari faoliyatlar shunday tashkil etilishi kerakki, barcha o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ishlash imkoniyatiga ega bo'lsin. Masalan, guruhli loyihalar yoki jamoaviy topshiriqlar orqali sog'lom o'quvchilar va ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar birgalikda ishlaydi. Bunday faoliyat jarayonida ular bir-biriga yordam beradi, muloqot qiladi va o'zaro hurmat tuyg'usi shakllanadi. Amaliy misol sifatida adabiyot darsida kichik guruhlar tashkil etilib, har bir guruhga hikoya yoki asar mazmunini tahlil qilish vazifasi berilishi mumkin. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi audio yoki Brayl matn orqali asarni o'qib chiqadi va guruh muhokamasida faol qatnashadi. Bu jarayon uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va sinf jamoasiga moslashishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, maktab muhitini ham tiflopedagogik talablar asosida moslashtirish muhimdir. Masalan, maktab binosida relfli yo'lak belgilarining mavjudligi, zinapoyalarning kontrast rang bilan ajratilishi yoki maxsus audio signal tizimlari ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun qulaylik yaratadi. Bu nafaqat ta'lim jarayonida, balki kundalik maktab hayotida ham mustaqil harakat qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, tiflopedagogika inklyuziv ta'lim tizimida metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. U ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ta'lim jarayonida teng ishtirok etishini ta'minlash, pedagogik jarayonni moslashtirish hamda ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Shu sababli tiflopedagogika inklyuziv ta'limning muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ularning ijtimoiy moslashuvini va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash – bolalarning jamiyatga moslashishi, muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z qobiliyatlarini erkin namoyon qilishiga yordam berish.

Ta'lim jarayonida diskriminatsiyani kamaytirish – ya'ni bolalarni nogironligi yoki imkoniyati cheklanganligi sababli kamsitmaslik, barcha o'quvchilarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlash..

### 2. Tiflopedagogikaning inklyuziv ta'lim tizimidagi roli

Tiflopedagogika — ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning o'qish, bilim olish va hayot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'quv-tarbiyaviy fan. Inklyuziv ta'lim kontekstida tiflopedagogika quyidagi yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega:

Ta'limdagi adaptiv yondashuv inklyuziv ta'lim tizimining muhim metodologik tamoyillaridan biri bo'lib, u ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



moslashtirishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvning asosiy maqsadi — ko'zi o'jiz yoki ko'rishida qiyinchiligi bo'lgan o'quvchilarga umumta'lim muhitida samarali bilim olish imkoniyatini yaratishdir. Adaptiv yondashuv nafaqat o'quv materiallarini o'zgartirishni, balki dars metodlari, baholash tizimi, pedagogik vositalar va o'quv muhitini ham o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirishni o'z ichiga oladi.

Avvalo, adaptiv yondashuv o'quv rejalari va o'quv dasturlarini moslashtirish orqali amalga oshiriladi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun darsliklar va o'quv materiallari oddiy matn ko'rinishida emas, balki maxsus shakllarda taqdim etiladi. Masalan, ko'zi o'jiz o'quvchilar uchun matnlar Brayl yozuvida tayyorlanadi yoki audio shaklga o'tkaziladi. Bu ularga mustaqil ravishda o'qish va ma'lumotni o'zlashtirish imkonini beradi. Amaliyotda, masalan, adabiyot darsida o'quvchilar hikoya yoki she'rni bosma kitob orqali o'qiyotgan bo'lsa, ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi shu asarning Brayl yozuvidagi nusxasidan yoki audio yozuvdan foydalanadi. Natijada u ham dars jarayonida teng ishtirok etadi va muhokamada o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Adaptiv yondashuvda didaktik materiallarni sezgi organlari orqali idrok etish imkoniyatini yaratish ham muhim hisoblanadi. Ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilar ko'pincha ma'lumotni eshitish, teginish va sezish orqali qabul qiladi. Shu sababli dars jarayonida relfli (bo'rtma) tasvirlar, maketlar, modellardan keng foydalaniladi. Masalan, geografiya darsida yer yuzasining tuzilishi o'rganilayotganda oddiy xaritalar o'rniga relfli xaritalar qo'llaniladi. O'quvchi qo'li bilan xaritada tog'lar, daryolar yoki davlat chegaralarini paypaslab, ularning joylashuvini tushunadi. Xuddi shuningdek, biologiya darsida o'simlik yoki hayvon tuzilishini o'rganishda haqiqiy namunalar, relfli rasmlar yoki maxsus modellardan foydalanish o'quvchining mavzuni yaxshiroq anglashiga yordam beradi.

Adaptiv yondashuv dars metodlarini ham o'zgartirishni talab qiladi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun o'qituvchi darsni ko'proq og'zaki tushuntirish, tavsiflash va muloqotga asoslangan metodlar orqali olib boradi. Masalan, matematika darsida geometrik shakllarni tushuntirishda o'qituvchi faqat doskaga chizib qo'yish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarga relfli shakllar yoki maketlarni ushlab ko'rish imkonini beradi. Kvadrat, uchburchak yoki aylana shakli o'quvchiga qo'li bilan sezdirilganda, u bu tushunchani ancha yaxshi anglaydi. Bu usul ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda abstrakt tushunchalarni konkret tajriba orqali o'zlashtirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, adaptiv yondashuvda texnologik vositalardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun turli elektron qurilmalar va dasturlar mavjud. Masalan, matnni ovozga aylantiruvchi dasturlar, audio kitoblar, maxsus ekran o'qish dasturlari yoki Brayl displeylari o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Informatika yoki boshqa fanlarda bunday texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarga mustaqil ishlash, ma'lumot izlash va o'z bilimini mustahkamlash imkonini beradi.

Adaptiv yondashuvning yana bir muhim jihati baholash jarayonini moslashtirishdir. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni baholashda faqat yozma topshiriqlarga tayanib





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qolish to‘g‘ri natija bermasligi mumkin. Shu sababli ularga og‘zaki savol-javoblar, audio topshiriqlar yoki amaliy mashg‘ulotlar orqali bilimini namoyish etish imkoniyati yaratiladi. Masalan, tarix fanidan test topshiriqlarini yozma shaklda bajarish o‘rniga, o‘quvchi o‘z javoblarini og‘zaki tarzda bayon qilishi yoki audio shaklda topshirishi mumkin.

Shuningdek, adaptiv yondashuv o‘quvchilarning mustaqil hayot ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktab muhitida mustaqil harakat qilish, o‘quv qurollaridan foydalanish, dars jarayonida faol qatnashish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchiga sinfdagi joylashuvni tushuntirib beradi, o‘quv qurollarini qanday tartibda joylashtirishni o‘rgatadi yoki sinf ichida mustaqil harakatlanishga yordam beradi. Bunday ko‘nikmalar o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va uning ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ta‘limdagi adaptiv yondashuv ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos ta‘lim muhitini yaratishga qaratilgan kompleks pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu yondashuv orqali o‘quv materiallari, dars metodlari, pedagogik vositalar va baholash tizimi o‘quvchining imkoniyatlariga moslashtiriladi. Natijada ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar ham umumta‘lim jarayonida faol ishtirok etib, o‘z bilim va qobiliyatlarini to‘liq namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Umumta‘lim muhitida ishlaydigan pedagoglar inklyuziv pedagogika va tiflopedagogika tamoyillarini chuqur bilishlari zarur. Bu o‘qituvchilarga o‘quvchilarning maxsus ehtiyojlarini tushunish va ularga mos dars strategiyalarini qo‘llashga imkon beradi.

Inklyuziv muhit ko‘zi ojiz o‘quvchilarga nafaqat akademik bilim, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham shakllantirishga yordam beradi. Ta‘lim jarayonida sog‘lom tengdoshlari bilan birga ishlash ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va jamiyatga moslashuvni kuchaytiradi.

3. Inklyuziv muhit va tiflopedagogika tamoyillari — ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalami umumiy ta‘lim jarayoniga moslashtirishga qaratilgan. Bunda:

Maxsus o‘quv materiallari (Braille yozuvi, taktil diagramma, audio kitoblar),

Mos pedagogik metodlar (interaktiv va multisensor usullar),

Psixologik qo‘llab-quvvatlash (individual qobiliyatni hisobga olish) orqali ta‘lim samaradorligi ta‘minlanadi.

### **XULOSA**

Inklyuziv ta‘lim tizimida tiflopedagogikaning roli juda muhimdir. U ko‘zi ojiz o‘quvchilarga umumta‘lim muhitida bilim olish, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy muhitda faol ishtirok etish imkoniyatlarini beradi. Inklyuziv ta‘lim va tiflopedagogika birgalikda o‘quvchilarning teng huquqli ta‘lim olishiga, ijtimoiy integratsiyaga va to‘laqonli hayotga tayyorgarlik ko‘rishga xizmat qiladi. Shu sababli ta‘lim siyosatida inklyuziv yondashuvlarni yanada kuchaytirish, pedagoglarni maxsus tayyorlash va adaptiv ta‘lim resurslarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inclusive Education for Visually Impaired Students: Integrating Technology, Pedagogy, and Theory. International Journal of Research. 2024.
2. Inklyuziv ta'lim – hamma bolalar uchun teng imkoniyatlar. Xidirova M.Q., Ortiqova S.S. (2025).
3. A Systematic Review on Inclusive Education of Students with Visual Impairment. Educ. Sci. 2020.
4. Inklyuziv ta'limning mohiyati va imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy ahamiyati. Journalss.org.
5. Teaching Visually Impaired Students in Inclusive Classrooms at Early Childhood Level. JIE.

